

**Andijon davlat tibbiyot instituti, vrachlar malakasini  
oshirish va qayta tayyorlash fakultetining akusherlik va  
ginekologiya kafedrası**



**Kafedra mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi,  
dotsent**

**YAKUBOVA OLTINOY  
ABDUG'ANIYEVNA**

**Ish vaqti:** 8.00 – 15.00

**Tel:** +998 91 610 22 99

**E-mail:** [Yakubova62@mail.ru](mailto:Yakubova62@mail.ru)

**VMO va QAYTA TAYYORLASH FAKULTETINING  
AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA KAFEDRASI TARIXI**

Kafedra 1984-yili 1-akusherlik va ginekologiya davolash fakultetining qoshida tashkil topgan. Andijon viloyat perinatal markazida joylashgan.

1-akusherlik va ginekologiya kafedrasining birinchi mudiri 1984-1985 yilgacha – t. f. n. dotsent Abdusalamova Klara Ilxamovna. Kafedraning ochilishida birinchi xodimlari quyidagilar bo'lgan: Akopova Albina Leontevna, Raxmatullaeva Gavxar Raxmatullaevna, Nezamitdinova Maxbuba Mo'minovna. 1985-yildan 2000-yilgacha kafedra mudiri – t.f.n.dotsent Ovchinnikova Lidiya Sergeevna bo'lgan.

Kafedra xodimlari: t.f.n.dotsent To'raeva Qunduz Yuldashevna, Nezametdinova Maxbuba Mo'minovna, Naumov Yuriy Germanovich, Raxmatullaeva Gavxar Raxmatullaevna, Soloveva Nina Stepanovnalari bo'lgan. 2000-yilning noyabr oyidan 2002-yil aprel oyiga qadar t.f.n. dotsent To'raeva Qunduz Yuldashevna mudir vazifasini vaqtincha bajaruvchi lavozimida ishlagan. Kafedra xodimlari quyidagilar: t.f.n. dotsent Stalinskaya Valentina Pavlovna, assistentlar – Nezametdinova Maxbuba Mo'minovna, Bogdanova Aliya Nailevna, Ashurova Sadejjan Abdumo'minovna.

2002-yilning aprel oyidan 2012-yil dekabrgacha kafedra mudiri t.f.n. dotsent Ashurova S.A. bo'lgan. Kafedra xodimlari: t.f.n. dotsent To'raeva Qunduz Yuldashevna, t.f.n. dotsent Stalinskaya Valentina Pavlovna, assistentlar –

Nezametdinova Maxbuba Mo'minovna, Bogdanova Aliya Nailevna, Turgunova SHoxista Alimovna, Abduraxmanova Lola Dadaxanovna.

2010-yildan Ashurova S.A. Andijon Tibbiyot Institutining davolash ishlari bo'yicha mas'uli lavozimida ishlagan. 2012-yildan assistentlik lavozimiga Maxmudova Kamila Shavkatovna qabul qilingan. 2017-yil noyabr oyida Turg'unova Dildora Ziyapovna patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrasidan VMO va QTF Akusherlik ginekologiya kafedrasiga assistentlik lavozimiga o'tkazildi.

2012-yil yanvar oyidan kafedrani tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Yakubova Oltinoy Abduganievna boshqarib kelmoqda.



**dotsent Ashurova Sadetjan Abdumuminovna  
2002-2012 yy kafedra mudiri**

Kafedra 30 yil mobaynida Farg'ona vodiysidagi akusher - ginekologlarning malakasini oshirib kelmoqda. Kafedra xodimlari Farg'ona vodiysi viloyatlarida davolash – otaliq ishlarni amalga oshirib kelmoqda, akusherlik ginekologiya amaliyotiga yangi tashxislash va davolash usullarini tatbiq etmoqda. Viloyatlar va tumanlar aro ilmiy – amaliy anjumanlar o'tkazib bormoqda.

Kafedra xodimlari tomonidan ilmiy ishlar olib borilmoqda, Respublikada va chet elda turli maqola va tezislari chop etilmoqda.

Alohida ma'ruza zali, kompyuter xonasi, o'quv xonalari, tinglovchilar dam olish xonasi. Perinatal markazining barcha bo'limlarida amaliy mashg'ulot o'tkazish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'quv jarayoniga yangi o'quv texnologiyalar tatbiq qilingan.

Shu yillar mobaynida 6000 tadan ortiq mutaxassislar malakasini oshirib ketgan.





### Kafedra jamoasi 2017-yil

Kafedra zamonaviy texnika vositalari bilan o'qitish uchun jihozlangan, ular: Videoikkilik; Kompyuter; Kodoskop; Multimedia; Nootbuk; Laminatsiyalangan o'quv plakatlari; Zoya; Akusherlik qisqichlari; Kursantlarga tug'ruq jarayonini olib borilishini ko'rsatish uchun tug'ruk zalida distansion videokamera o'rnatilgan; **Kafedrada 3 ta elektron kutubxona mavjud**, bundan tashqari barcha o'quv xonalarda har bir kafedra xodimlarining o'z kutubxona burchagi bor.



Kafedraning asosiy ilmiy yo'nalishi – «Bolalar ginekologiyasi» ga yo'naltirilgan. Bugungi kunda kafedra mudiri dotsent O. A. Yakubova shu yo'nalish bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini boshlagan.

Kafedrada tayyorlangan ilmiy xodimlar va shu soha mutaxassislari Respublikamiz viloyatlarida faoliyat ko'rsatishmoqda.



## **KAFEDRA BUGUNGI KUNDA**

Hozirgi kunga kelib kafedrada 4 nafar xodim faoliyat ko'rsatmoqda: kafedra mudiri - t.f.n., dotsent – O.A. Yakubova, kafedra dotsenti t.f.n. Sulaymanova N.A., assistentlar:- Maxmudova K.SH., Turg'unova D.Z.



### **Yakubova Oltinoy Abduganievna Kafedra mudiri, t.f.n., dotsent.**

1962-yil Andijon viloyati, Andijon shahrida tug'ilgan. 1985-yil ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 300 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 2 ta ixtiro, 50 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar, 25 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi.

«Profilaktika i lechenie zaderjki vnutriutrobnogo razvitiya ploda u beremennix s jelezodefitsitnoy anemiyey» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Hozirgi kunda «Sovershenstvovanie diagnostiki i differentsirovannie podxodi k diagnostike yuvenilnoy dismenorei» mavzusida doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

*Ish vaqti: 8.00-15.00*

*E-mail: [Yakubova62@mail.ru](mailto:Yakubova62@mail.ru)*



### **Suleymonova Nasibaxon Adashevna Kafedra dotsenti, t.f.n.**

1970 yil Andijon viloyati, Qorasuv shahrida tug'ilgan. 1993 yil ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 90 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 1 ta ixtiro, 40 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar, 15 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi.

«Salpingoofaritning klinik patogenetik namoyon bo'lishida membranodestruktiv jarayonlarning o'rni va ularni korreksiyalash usullari.» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

*Ish vaqti: 8.00-15.00*

*E-mail: [nsuleymanova@mail.ru](mailto:nsuleymanova@mail.ru)*



**Maxmudova Kamila SHavkatovna**

**Kafedra assistenti**

1984- yil Farg'ona shahrida tug'ilgan. 2008y. ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 2011 y. "Akusherlik va ginekologiya" mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik darajasini olgan. 80 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 2 ta ixtiro, 30 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar muallifi.

*Ish vaqti: 8.00-15.00*

*E-mail: [komila@list.ru](mailto:komila@list.ru)*



**Turg'unova Dildora Ziyapovna**

**Kafedra assistenti**

1960 -yil Andijon shahrida tug'ilgan. 1984- yil ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 2016-2017 yillar davomida patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrasida assistent lavozimida ishlagan. 15 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 4 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar, 10 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi.

*Ish vaqti: 8.00-11.00*

*E-mail: [td1960@mail.ru](mailto:td1960@mail.ru)*

Kafedra xodimlari Andijon va Namangan viloyatlarida davolash va konsultativ yordam ko'rsatib kelishmoqdalar.

Joriy yilda oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollar sog'lig'ini mustaxkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va tarbiyalashni tashkil qilish yuzasidan Davlat dasturini amalga oshirish maqsadida institutimiz olimlari qatori bizning kafedra assistentlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1096 sonli



"Ona va bola salomatligini muhofaza qilish sog'lom oilani shakllantirish"ga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi qarori ijrosini ta'minlash borasida viloyat tuman QOP larida amaliy yordam berishmoqda.

O'qitish texnik va ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlangan: televizor, video, ZOYa–akusherlik, ZOYa–Ginekologiya, BIS mulyaji, kompyuter, slaydoskop, tematik posterlar, ekran, akusherlik chanog'i, tug'ruq biomexanizmi mulyaji, diafilmlar, videomagnitofon, kassetalar, kitoblarning elektron versiyalari.



Kursantlarni o'qitish zamonaviy dasturlar, dalillarga asoslangan tibbiyot yangiliklari yoritilgan holda, ADTI Ilmiy Kengashi hamda rektorati qarorlariga muvofiq holda akusherlik-ginekologiya fani xususiyatlaridan kelib chiqib, kafedrada tuzilgan yangi Nizom asosida olib boriladi.

### **KAFEDRA ILMIIY ISHLARI:**

2017-yilda bajarilgan ilmiy ishlar borishi haqida ma'lumot:

Monografiyalar	2
Metodik qo'llanmalar	2
Maqolalar	10
Tezislar	8
O'quv metodik slaydlar	7
O'quv-uslubiy qo'llanmalar	13

Kafedrada 2017-yilda 5 ta ratsionalizatorlik takliflar va 3 ta amaliyotga tadbiiq etilgan.

Kafedrada talabalar ilmiy jamiyati faoliyat ko'rsatadi. Uning o'z rejalari bo'lib ilmiy referativ konferensiya, seminar va majlislar o'tkaziladi. Ilmiy jamoa majlislarida kafedra mudiri va kafedra dotsentlari boshchiligida, kafedra o'qituvchilari qatnashadi va ular ilmiy rahbarlik qiladilar



